

3.4.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, ta'sis hujjatlarida, **Ijrochining** mahalliy nizomlarida belgilangan qabul qilish shartlarini bajargan, **Buyurtmachi** ushbu shartnomaning **IV** bo'limida ko'rsatilgan to'lov tartibiga rioya qilishi sharti bilan **Tinglovchilarni** kursant (tinglovchi) sifatida ro'yxatga olish.

3.4.2. **Buyurtmachiga** va **Tinglovchilarga** pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish haqidagi ma'lumotlarni yetkazish;

3.4.3. mazkur shartnomaning **II** bo'limida nazarda tutilgan ta'lim xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash. Ta'lim xizmatlari ta'lim standarti, o'quv rejasi, shu jumladan, individual va **Ijrochining** dars jadvaliga muvofiq ko'rsatiladi;

3.4.4. **Tinglovchilarni** o'zlashtirish uchun tanlagan o'quv dasturida ko'zda tutilgan shart-sharoitlar bilan ta'minlash;

3.4.5. **Buyurtmachidan** ta'lim xizmatlari uchun to'lovni qabul qilish;

3.5. **Buyurtmachi** ushbu shartnomaning **II** bo'limida ko'rsatilgan **Tinglovchiga** ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun to'lovni ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda o'z vaqtida amalga oshirishi hamda bunday to'lovni tasdiqlovchi to'lov hujjatlarini **Ijrochiga** taqdim etishga majbur.

3.6. Boshqa shahardan kelgan **Tinglovchi** o'qish davrida yotoqxonada joy bilan ta'minlanishi mumkin.

3.7. **Tinglovchi** quyidagilarga majbur:

3.7.1. Markaz to'g'risidagi nizomga, **Ijrochining** ichki tartib qoidalari, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi qoidalari va **Ijrochining** boshqa mahalliy qoidalari talablariga rioya qilish.

3.7.2. **Ijrochining** mol-mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish. **Ijrochining** mol-mulkiga yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qoplash.

3.7.3. Boshqa tinglovchilar, o'qituvchilar va **Ijrochining** boshqa xodimlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

IV. Ta'lim xizmatlarining narxi, ularni to'lash muddatlari va tartibi

4.1. O'qitish narxi tasdiqlangan preyskurantga muvofiq 525000 so'mni tashkil qiladi.

4.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun shartnoma summasi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'mda) to'lanadi.

4.3. To'lov **Buyurtmachi** oldindan shartnoma qiymatining 30 foiz to'lovini shartnoma imzolanganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tganidan keyin o'n bank ish kuni mobaynida Markazning hisob-raqamiga o'tkazib beradi.

Buyurtmachi shartnoma qiymatining qolgan 70 foiz to'lovini Markaz tomonidan taqdim etilgan hisob fakturaga asosan, besh bank ish kuni davomida amalga oshiradi.

4.4. Institutdagi o'quv mashg'ulotlari boshlanadigan oyning 01-sanasidan oldin imzolangan shartnoma, shuningdek Shartnoma bo'yicha to'lov va/yoki to'lovni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa, kursantning (tinglovchining) darslarga kirishiga ruxsat etilmaydi.

4.5. **Buyurtmachi** tomonidan to'lov qobiliyati yo'qotilgan taqdirda, boshqa yuridik (jismoniy) shaxs **Ijrochi** bilan alohida shartnoma tuzish orqali shartnoma bo'yicha to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.

4.6. To'lov naqd pulda yoki **Ijrochiga** xizmat ko'rsatuvchi bankning hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tomonlar **Ijrochiga** xizmat ko'rsatuvchi bank hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kuni to'lov majburiyatlarini bajarish kuni deb tan oladilar. Pul mablag'lari **Tinglovchini** qabul qilish to'g'risidagi buyruq chiqarilishidan 1 kun oldin kelib tushishi kerak.

4.7. Agar ta'lim xizmatlari **Buyurtmachi** tomonidan to'lanmagan bo'lsa, **Tinglovchilarga** darslarga qatnashishga ruxsat berilmaydi. Bunday holda Ijrochi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

Tinglovchilar tomonidan sababsiz darslari qoldirish **Ijrochining** xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmaslik uchun sabab bo'lmaydi.